

TEMIR YO‘L TRANSPORTIDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Shakirova Farog‘at Boltaevna

*Toshkent davlat transport universiteti “
Transport iqtisodiyoti” kafedrası professori,*

J. J. Abdulakimov

Toshkent davlat transport universiteti talabasi

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi tashqi va ichki bozorlarda raqobatni tobora kuchaytirib borayotgan hozirgi davrda, fan-texnika taraqqiyotining eng so‘nggi yutuqlarini hisobga olgan holda sifatli ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishni tashkil qilish shu bugungi kun talabiga javob bera oladi. Yuk va yo‘lovchilarni tashish borasida temir yo‘l transporti boshqa transport tizimlariga qaraganda iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi. Uning afzalliklari shundan iboratki, ob-havoning qanday bo‘lishidan qat’iy nazar yuk tashish muntazam amalga oshiriladi. Boshqa transport bilan taqqoslanganda temir yo‘l transporti yuk ko‘tarish qobiliyatining balandligi va narxning nisbatan arzonligi bilan ajralib turadi. Bu sohani innovatsion rivojlantirish esa, mamlakat iqtisodiyotini yuksalishiga bevosita ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Innovatsiyalarni sohaga jalb etish orqali mahalliy va xorijiy iste’molchilar talabini qondirish mumkin. Bu esa o‘z navbatida innovatsiya, innovatsion faoliyat va jarayonning mohiyatini sohaning o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olgan holda atroflicha o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy fanda “innovatsiya”ning mohiyatini ilk bor avstriyalik olim Y. Shumpeter quyidagicha ta’riflagan: “Innovatsiya – mavjud jarayonga yangicha qarash, yondashuv bo‘lib, zamonaviy kashfiyot, ishlanma yoki insoniyat faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan yangi ishlab chiqarishni muayyan jarayonga qo‘llash”. Uning fikricha, iqtisodiy faoliyatga aynan innovatsion yondashuv har bir davr iqtisodiy tizimining rivojlanish darajasini belgilab beradi. Uning nazariyasida tadbirkorlik ishlab chiqarishning to‘rtinchi omili sifatida qaraladi. Shuningdek, tadbirkorlarning vazifasi yangi tovarlar yoki eski tovarlar yangi uslubda ishlab chiqarish uchun ixtirolardan foydalanib, yangi xom ashyo va materiallar manbalari yoki yangi bozorlar ochib, ishlab chiqarishni isloh qilish va takomillashtirishdan iborat. Olim innovatsiyalar, tadbirkorlar tufayli iqtisodiyotda inqilobiy o‘zgarishlar sodir bo‘lishini bashorat qilgan [1].

Innovatsiyalarni temir yo‘l sohasiga jalb etish orqali mahalliy va xorijiy iste’molchilar talabini qondirish mumkin. Bu esa o‘z navbatida innovatsiya, innovatsion faoliyat va jarayonning mohiyatini sohaning o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olgan holda atroflicha o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagi

jadvalda temir yo'l transportida innovatsion faoliyatga ta'sir etuvchi omillarni qarab chiqamiz (1-jadval).

1-jadval

Temir yo'l transportida innovatsion faoliyatni rivojlantirishiga ta'sir etuvchi omillar

Temir yo'l transporti innovatsion faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar						
Iqtisodiy omillar	Texnologik omillar	Ijtimoiy omillar	Huquqiy va me'yoriy omillar	Ekologik omillar	Raqobat va bozor talablari	Axborot texnologiyalari

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, temir yo'l transporti innovatsion faoliyatiga yurli yo'nalishlarda bir qator omillar ta'sir qilishini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, iqtisodiy va texnologik omillar innovatsiyalarning amalga oshirishini tezlashtirsa, ijtimoiy va ekologik omillar ularning qabul qilinishiga ta'sir ko'rsatadi. Huquqiy baza va davlat siyosati esa innovatsiyalarning tizimli rivojlanishi uchun asos yaratadi. Innovatsiyalarni joriy etishda ushbu omillarni hisobga olish, temir yo'l tizimining barqaror va samarali rivojlanishiga yordam beradi. Innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish uchun yetarli darajada moliyaviy resurslar mavjud bo'lishi lozim. Bunda investitsiyalarning innovatsiyalarga yo'naltirish alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, davlat-xususiy sherikli munosabatlari va xalqaro grantlarni ham mazkur jarayonga yo'naltirish asosiy masalaldir. Innovatsiyalarni joriy etish esa kompaniyaning iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ya'ni yuk va yo'lovchi tashish hajmining oshirish natijada iqtisodiy samaradorlikka erishiladi.

Raqamli texnologiyalar innovatsion rivojlanishning mantiqiy davomi sanaladi. Temir yo'l transportida mazkur texnologiyalarni qo'llash va integratsiyalash ijobiy samarasini ko'rsatadi. Jumladan, yuk va yo'lovchi tashishni raqamlashtirish, internet buyumlarni qo'llash orqali temir yo'l infratuzilmasi va poezdlar holatini real vaqtda kuzatib turish imkonini beradi. Avtomatlashtirish orqali esa mashinistsiz poezd boshqaruvini intellektual boshqaruv tizimlari orqali boshqarishni ta'minlaydi. Energiya tejovchi texnologiyalardan foydalanish esa davr talabidir. Innovatsiyalarni amalda qo'llay bilish uchun kadrlar malakasini samarali oshirish borish, innovatsion texnologiyalarni qo'llay oladigan bo'lishlari lozim. Yo'lovchilarga maksimum ijobiy sharoitlar yaratishda ularning tez, qulay va xavfsizlik borasidagi talablarini qondirish omili muhim. Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan rag'batlantirilishi, ya'ni mazkur yo'nalishdagi strategiyalarning to'g'ri tanlanganligi muhim ahamiyatga ega.

Xorijiy texnologiyalarni o'rganib, uni joriy qilish imkoniyatlari orqali soha rivoji jahon talablari darajasiga tushishni tezlashtiradi.

Big Data texnologiyalari transport sohasida ma'lumotlarni tahlil qilish va ishlash orqali yuk va yo'lovchi tashish jarayonlarini optimallashtirishning muhim vositasidir. U katta hajmdagi ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, tahlil qilish va ular asosida qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Temir yo'l transportida Big Data texnologiyalaridan foydalanish samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va xizmat sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Hozirgi paytda inductpial jamiyatdan axbopotlashgan jamiyatga o'tish po'y bepmoqda. Moddiy va enepgetika pecupclapi axbopotdan ko'pa qampoq ahamiyat kacb etmoqda. Poctinductpial (axbopot) jamiyatida axbopot ishlab chiqapishning muctaqil omili dapajaciga chiqmoqda. Axbopot xizmatlapi cohacining jadal cup'atlap bilan pivojlanishi va axbopot texnologiyalapi acpida N.Potshildning "Kim axbopotga ega bo'lca, o'sha dunèni boshqapadi" degan klaccik ibopaci zamnoav viy dunèning mohiyatini akc ettipadi.

Ma'lumki, paqamlashtipishning asosini axbopot tizimlari tashkil etadi. "O'zbekiston temir yo'llari" aksioneplik jamiyatining acociy axbopot tizimlapi quyidagicha tapkib topgan:

- **ACOU-2** – tashishlapni tezkop boshqapish avtomatlashtipilgan tizim;
- **EK IODV** – tashish xujjatlarni qayta ishlash bo'yicha yagona integpasiya-lashgan tizim;
- **DICKOP** – operativ ishlarni nazorat qilish integrasiyalashgan tizim;
- **ACU Ekcppecc-3** – joylarni elektpon chiptalarni bron qilish va yo'lovchilar tashishni boshqarish avtomatlashtipilgan tizimi.

Bulardan tashqari bir necha kichik axborot tizimlar mavjud:

- **SCADA** – elektr ta'minot ob'ektlarini boshqarish tizimi;
- **"Germe"** – elektron xujjat almashinuvi tizimi, qator avtomatlashtirilgan ish joylari (ARMIlar).

Lokomotivlarning tormozlanish masofasini hisoblash uchun Hamdo'stlikka a'zo davlatlar temir yo'l transporti Kengashi tomonidan tasdiqlangan tormoz uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish va temir yo'l vagonlarini tormozlashni boshqarish qoidalari (60-sonli bayonnoma, 6-7 may 2014 yil) qo'llanildi. O'z navbatida, qoidalar tormozlanish masofasini hisoblash metodologiyasi asosida ishlab chiqilgan.

2 -jadval

Tormoz masofasini hisoblash

metrda

Poezdlarning nomlanishi	Harakat tezligi, km/s		
	90	120	200

Yo'lovchi tashish poezdi	590	1083	-
3500 t og'irlikdagi yuk tashish poezdi	1885	-	-
Afrosiyob	471	855	2479

Temir yo'l uchastkalarida egri yo'llar mavjudligi tufayli videokameraning ko'rish oralig'i 300 metrdan oshmaydi. Barcha temir yo'l o'tish joylari avtomatik temir yo'l signalizatsiya moslamalari-to'siqlar va shlagbaum moslamasi bilan jihozlangan. Qo'riqlanadigan o'tish joylarida navbatchilar tunu - kun o'tish joylarini kuzatadilar. Manevr lokomotivlarida sun'iy intellektni o'rganish amaliy ahamiyatga ega emas, chunki lokomotivlarni bitta mashinist boshqaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:/REFERENCES:

1. Shumpeter Y.A. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya. M.: Progress, 1983.S.
2. 278-285.
3. Shakirova, S. N. A. S. (2022). THE IMPORTANCE OF MOTOR VEHICLES AND ROADS IN THE DEVELOPMENT OF THE ECONOMIC SECTOR. *Confrencea*, 6(6), 213-215.
4. Shadiyeva, G. (2022). The Role of Family Business in the Development of the Service Industry. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(9), 213-218.